

SHAXODAT ISAXANOVA IJODIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI OBRAZI

Kenjayev Farxod Ikram o'g'li

*O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti doktoranti*

E-mail: 777farhodkenja777@gmail.com

***Annotatsiya:** Maqolada yozuvchi Shahodat Isaxonovanning "Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika" romanida tarixiy shaxslar xususan Jaloliddin Manguberdi, Turkon Xotun, Alouddin Muhammad, Chingizxon kabi ijobiy va salbiy obrazlar badiiy talqini, ularga boshqa rakurslardan qarash va o'zidan oldingi ayni shu mavzudagi boshqa asarlardan farqli tomonlari tahlilga tortilgan.*

***Kalit so'zlar:** Yada toshi, xronikali syujet, tarixiy manbalar, originallikni ta'minlash, badiiy to'qima.*

Shahodat Isaxonovanning badiiy yangiliklaridan biri bu tarixiy manbalarda mavjud bo'lgan faktlarni badiiy asarda voqean gavdalantirishidir. Masalan ijodkor hech bir romanda hali qo'llanmagan yangi faktlarni badiiylashtiradi aynan shulardan biri "yada toshi" hisoblanadi. Ko'plab tarixiy manbalarda bu tosh haqida ma'lumotlarmavjud. Roman davomida adiba bu ma'lumotni ikki o'rinda epizodik tarzda qo'llab, Jaloliddin obraziga sinkretlilik baxsh etadi. Birinchi epizod asar boshida "Ketar chog'lari o'rtada turgan, hajmi mushtday, rangi yashil, ko'k va qo'ng'ir tovlanuvchi g'alati toshni ko'rib qolgan Ahror Kamoliddinning ko'zlari birdan o'ynadi.

- Yada toshimu? – dedi beixtiyor, unga uzanarkan, — ushlab ko'rsambo'ladirmu?

- Bo'ladur! — dedi shahzoda...-Bul tosh yomg'ir toshidur, Yomg'ir birlan yovga ersa tilak tilanmaydir!....

Mullavachchalar Sulton Jaloliddinning yada toshi bilan yomg'ir chaqirishini eshitib, hayron qolishdi"¹ shaklida kelsa, ikkinchi o'rinda fabula shaklida keladi: "Esingizdamu, shahzoda Mengtusshoh birlan cho'lga chiqib, yada toshi ila yomg'ir yog'dirib erdik..."².

Shaxodat Isaxonova romanida Jaloliddin obrazi tengsiz jismoniy kuch-quvvat sohibi balki, ilohiy kuchga ega sehrli anjom(tosh)ni ishlata oladigan qudratli sulton sifatida oldinda turgan hechqanday xavf-xatardan cho'chimaydigan alp. Folkor dostonlarda o'n to'rt botmon(224 kg) brinch(bronza)dan bo'lgan parli yoyidan xos alplar o'q ota olgandek, asar davomida bu toshni faqat Jaloliddin ishlata oladi. "Ma'lumki, o'zbek xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti va jahon adabiyotida sehrli anjomlar bilan bog'liq asarlar ko'p. Xalq og'zaki ijodidagi ertaklarda qaynar xumcha, ochil dasturxon, urto'qmoq; xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotda oynai

¹ Ushbu asar. – B. 170.

² Ushbu asar. – B. 375.

jahonnamo, sehrli ko'zgu, sirli sandiq, sirli taroq kabi sehrli anjomlar sarguzasht asarlarda ko'p tasvirlangan"³.

Yada toshi haqidagi ilk ma'lumot Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" ("Turkiy tillar lug'ati") asarida keltiriladi⁴. Muallif يت – jat so'zini keltirib, uni "yomg'ir, shamol va boshqalarni talab qilish uchun maxsus toshlar (yada toshi) bilan fol ochish odatidir"⁵, – deb izohlaydi. Qoshg'ariy buni o'z ko'zi bilan ko'rganligini ham ta'kidlaydi: "Men buni yag'molar shahrida o'z ko'zim bilan ko'rdim. U yerda paydo bo'lgan bir yong'inni so'ndirish uchun shunday fol qilingan edi, xudoning amri bilan yozda qor yog'di. Ko'z oldimda yong'inni so'ndirdi"⁶.

Ushbu odat haqida Mirzo Ulug'bek o'zining "To'rt ulus tarixi" nomli asari⁷ Chingizxon tarixi bayon qilingan qismining "Dushmanlarning O'ngxon va Temuchinni jodu qilganlari zikri"da shunday yozadi: "Buyruq, Toyonxon nayman, nayman qavmi hokimi Nangxon ular bilan dushmanlik munosabatida edi. Ular bilan jang qilmoq niyatida lashkar to'pladi. Jadachilarga jada qilmoqni buyurdi. Turklar jada qilmoqni "yoy etar" deyishadi. Nazm (mazmuni):

Yomon niyatli taqdirdan xabarsiz bo'lganidan ishi makru hiyla bo'lgandi. Shunday nayranglar tuzgan edilarki, toshlarni daryoga tashlagandilar. Uning xosiyati qor bilan bo'ron; shoh lashkarining makri halok bo'lgusi. Ular makridan shamolu qor paydo bo'ldi. Sahro qordan tubsiz dengizga aylandi. Lekin kimki makkor bo'lgan bo'lsa, o'zining yomon fe'lidan giriftor bo'lgan. Samo, qor, bo'ronlar o'tdi. Zero, bular ustidan nayranglar qilgan edilar. Nomdor Buyruq bilan birga bo'lgan sipohiyalar o'sha jangda unga hamroh edilar. Shamol, qor, bo'ron qorong'ulig'idan hamma sarosima va hayron edilar. Xudoning g'azabi bo'lgan qavmdan oyoq-qo'llarini sovuqqa oldirganlar yetib keldi. O'sha guruhdan ko'p kishi aldanib, tig'u tog'dan halok bo'ldilar. Tan bor edi, jang maydoni; yomon niyatlining ishi shunday janjaldir, degil, tirik bo'lganlar joyida qoldilar, keyin oyoq-qo'lini sovuq urib jo'nashdi. Biror kishi jang qilmay qochib ketishdi. Ulardan hech kim xabar topmadi"⁸.

Bu tarixiy ma'lumotlardan yada (jada) odati yada toshi ishtirokida amalga oshirilgani anglashiladi. Alisher Navoiyning "Badoyi' ul-bidoya"⁹ asarida پدا نائش yada toshi quyidagi shaklda uchraydi:

³ Rahmatulla Barakayev. Ma'rifatga tashna millat kerak yurtga. – Toshkent.: Muharrir nashriyoti, 2024. – B. 177.

⁴ Koshg'ariy Mahmud. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – uch tomlik. – III tom. /tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov/. – Toshkent, O'zfanakadnashr, 1963. – B. 463.

⁵ Koshg'ariy Mahmud. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – uch tomlik. – III tom. /tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov/. – Toshkent, O'zfanakadnashr, 1963. – B. 8.

⁶ Koshg'ariy Mahmud. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – uch tomlik. – III tom. /tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov/. – Toshkent, O'zfanakadnashr, 1963. – B. 8.

⁷ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. (B.Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahririda; Fors tilidan B.Ahmedov va boshq. tarj.). – Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, 1993 (1994). – 352 b.

⁸ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, 1993 (1994). – B. 81. (Matn to'liq keltirildi).

⁹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – Yigirma tomlik. – Birinchi tom: Badoyi' ul-bidoya. – Toshkent, O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1987. – 112.

Yada toshig'a qon yetgach, yog'in yoqqandek, ey soqiy,
Yog'ar yomg'urdek ashkim chun bo'lur la'ling sharobolud¹⁰.

Bu tosh tarixi haqidagi ma'lumotlar juda qadim zamonlarga borib taqaladi. "Yofas ibn Nuh alayhissalom Judi tog'idan nuzul etgach, Hazrati haq Jalli alo amri bilan Mashriq tomon jo'nadi. O'z padari buzrukvoridan ruxsat olish hangomida, undan duo o'rgatishlarini so'radi. To Hazrati Qodir alo alatloqdan yomg'ir yog'ishni so'ragay. Nuh alayhissalom unga ismi a'zamni o'rgatdi. U ismi a'zamni bir toshga naqsh qilib Yofas alayhissalomga topshirdi. Yofas (v. 12b) alayhissalomul ismi a'zam barakoti va sirlarin o'sha Hazrati bori taoloning buyuk nomi naqsh qilingan toshni har choq yomg'ir yog'ishini istaganlarida keltirar edilar. Bugungi kunda ham turklar orasida yomg'ir yog'diruvchi tosh mavjud. Ul toshni Jada toshi, Yada toshi deb ataydilar. U arabchasiga Hajar ul-mutur deyiladi. ... Ba'zilarning aytishicha, Hazrati Yofas alayhissalom o'z padari buzrukvoridan Hazrati Nuh boxiyulloh alo nabiyino va alayhumussalomdan ruxsat olganlari hangomida iltimos qilgan edilarki, meni shunday joyga amr qilingki, u yerda hayvonot bilan yashashim lozim bo'lsin, hayvonlarni botiniy ishlar vakili qilsangiz, yomg'irdan xabar beruvchi.

Xullas, mehribonlik duosini aytdilarki, qachon yomg'ir yog'ishiga hojat paydo bo'lsa, hazrati qodiri zuljalol yuborur.

Hazrati Nuh alayhissalom duo qildilarki, to haqqi subhona va ta'olo xabar berurki, yo Nuh, Odam alayhissalom yaratilmasdan burun mavjudotni yaratilgani taqdir qilingan. Tosh mahluqdirki, qoru yomg'ir yog'dirish, shamol esdirish, tuman tushirish, bulut paydo qildirish, u bilan bog'liq bo'lgay: uni olam ashyolari orasida muxtafi qilgan edik. Ilgariroq uni hayvonot a'zosiga va vaqtga (bog'ladi). Uning zuhuri sening duoyingga bog'liq edi. Endi o'shal toshni olgin va o'z farzandlaringga bergin. Qachon yomg'ir yo qor istahsa, bizning ismi a'zamni o'qiydilar va u toshga dam uradilar, suvga tashlab amal qiladilar. Xudovand qudrati xazinasidan qancha xohlasalar bahravar qiling. Xullas, Hazrati Nuh alayhissalom yomg'ir duosini Yofas alayhissalomga ta'lim berdilar va o'sha toshni ko'rsatdilar.

Mashoyixlar jumhuri kibor tavorix arboblari ko'ra, rivoyat qilishicha, Hazrati Yofas alayhissalom payg'ambari mursal bo'ldilar (v. 13a). Ul hazratga nozil bo'lgan kitoblarda o'sha orada yada ilmi ham zikr etilgan edi Har taqdirda ham ilmi Yada moddasida Hazrati Yofas ibn Nuh alayhissalom Mashriq mamlakatlarida shitob qilgandir"¹¹.

Jaloliddin Manguberdiga mansub yada toshi bugungi kunda Britaniya muzeyida saqlanadi¹². Mazkur tosh o'ymakor va gravyurali ishlanish texnikasiga ega bo'lib,

¹⁰ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – Yigirma tomlik. – Birinchi tom: Badoyi' ul-bidoya. – Toshkent, O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1987. – B. 114.

¹¹ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. – Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, 1993 (1994). – B. 34-35.

¹² Carved stone inscription of Jalal al-Din Khwarazm-Shâh. – The British Museum.

sangtaroshlik uslubida tayyorlangan. U islom madaniyatiga oid me'moriy ahamiyatga egadir. Bo'yi 29,00 sm, kengligi 50,00 sm, qalinligi 32,00 sm, og'irligi 42,50 kg bo'lgan ushbu tosh Eron hududidan topilgan va auksionda sotib olingan.

№1990.06.12.1 raqami bilan qayd qilingan ushbu eksponat milodiy 1230/1231-yilda ishlangan deb qaraladi. Eksponatga "mazkur toshning 1230/1231-yillarda, ya'ni Jaloliddin Xorazmshoh umrining oxirgi kunlaridagi sharqiy Turkiya, shimoli-g'arbiy Eron va Ozarbayjondagi harbiy yurishlaridan xabar beradi", — degan ta'rif berilgan¹³.

Asar boshida Turkon xotun dono, din peshvosi, nabiralarining suyuqli buvisi, olimu-ulamolar homiysi, barcha turkiy xalqlar onasi sifatida gavdalansa: "Turkiylarga turkiylardan o'zga do'st yo'qdur va bo'lmagay ham! Qangliyu qarluq, o'g'raku xalaj barchasi aslinda, turkiy qavmlardur. Bobobingiz alarni birlashtirib, el qilib erdi!". (Shu o'rinda yana holat oydinalshadi yozuvchining badiiy g'oyasi o'tmish qahramonlari bilan muloqatga kirganday ko'rinsada, aslida bu muloqot o'tmish qahramonlari, ularning tarixda qoldirgan ulug' ishlari, inson sifatidagi xato-kamchiliklari va tarixdan saboq xususiyatlari vositasida avtor bugungi kun kishisiga murojat qiladi) Keyingi boblarda yozuvchi vaziyatga aralshmaydi ya'ni uning tarixan qilgan xatolarini badiiy haqiqatga uyg'unlashtirish maqsadida voqealar tizginini qo'yib yuboradi va Turkon xotun "Gunohlarning gunohiga botdim...yo'q, yo'q, zalolat batqog'iga botgan, basirat ko'zi ochilmagan bul nodon malikangizniyupatmang...endi angladim...men shunga loyiqman"¹⁴ tarzida obraz iqrornomasi shakillantiriladi. Syujetdagi voqealarning o'zaro munosabatiga ko'ra xronikalisyujetdan foyadalangan muallif qahramonlarning taqdirini davriy izchillikda tasvirga oladi. Chunki xronikali syujet obraz xarakterini dinamik tarzda rivojlanishda ko'rsata olish jihatidan keng qamrovlarga ega. Masalan, Jaloliddin Manguberdi obrazi birdan yirik kontekstlarda paydo bo'lib, birdaniga xalqni, qo'shinni birlashtiruvchi, dushmanga ayovsiz kurashuvchi gigant shaxs sifatida gavdalanmaydi. Dastlab, qahramon sifatidagi Jaloliddin Manguberdi obrazini o'zi kabi shaxzodalar orasidagi umumiylikdan alohida shaxs sifatidagi valiahd obraziga va undan keyin shaxsiy xususiyatlari aks etgan xarakter tasviriga ranginlik beriladi. "Sulton Xorazmshoh va malika Turkon xotun ko'shiklari o'rnatilgan baland marmar supaning o'ng tomonida shaxzodalar valiahd Jaloliddin Manguberdi, Qutbiddin O'zloqshoh, Rukniddin G'ursanjtiy, G'iyosiddin Pirshoh va Oqshohlar uchun ham alohida ko'shiklar tikilgan

¹³ <https://artsandculture.google.com/asset/carved-stone-inscription-of-jalal-al-din-khwarazmsh%C4%81h/twFpIo7WtIN52A> Bu toshga sangtarosh Mahmud bin Muhammad ismli Rashid nomi bilan mashhur bo'lgan muhrkan va zargar ishlov bergan. Rashid asli kelib chiqishi Sharqiy Eronning uzoq Nishopur shahridan bo'lib, aftidan mo'g'ullar bosqinidan G'arbiy Eronga qochib kelgan bo'lishi mumkin. (O'sha joyda).

¹⁴ Ushbu kitob. 302-b.

edi"¹⁵ – deya valiahdligi ta'kidlanib keyingi matnda "G'azna, Bomiyon, al-G'ur, Bust, Takinobod, Zamin Davar va Hindiston bilan chegaradosh mamlakatlar hukmdori hisoblanmish shahzoda birinchi ko'shka joylashgan edi" matnida uning "birinchi ko'shka joylashgan" o'rni ya'ni alohidaligini tasvirlaydi. Shahodat Isaxonova portret yaratishda Manguberdi obrazning, xarakterining eng ishonchli manbasiga ya'ni Jaloliddin shaxsiy munshisi uni real hayotda ko'rgan zamondoshi Shihobiddin an-Nasaviyning "Siyrat as-Sulton Jalal ad-Din Mengburni" asariga tayanadi. Xususan unda Sulton Jaloliddin Manguberding siymosi, xarakter-xususiyatlari juda yorqin gavdalantirilgan:

"U bug'doymag'iz ranglik, o'rta bo'ylik, turkiy qiyofalik va turkiyda gapiradigan odam edi, shu bilan birga forsiyda ham so'zlasha olardi. Uning mardligi, jasurligiga kelsak, yuqorida hikoya qilganim janglardagi faoliyatini eslab o'tishning o'zi kifoya qiladi. U sherlar orasida eng zo'r sher edi, qo'rqmas chavandoz, lashkarlarorasida eng botir edi. U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so'zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo'yardi, kam gapirardi. U haqgo'ylikni, adolatni ulug'lardi, ammo u yashagan davrdagi g'alayonlar, alg'ovdalg'ovlar fe'l-atvorini o'zgartirdi. U qo'l ostidagi odamlarning og'ir hayotini yengillashtirishni xohlardi, ammo u yashagan davr qonunlari uni zulm qilishga majbur etardi"¹⁶. Bu real va obrazli tasvir o'zidan keyingi barcha Jaloliddin haqidagi xoh tarixiy, xoh badiiy asarlar bo'lsin barchasiga asosiy manba bo'lib kelmoqda. Mazkur romanda ham bu traditsiyaga amal qilingan holda qahramon obrazi muallif badiiy originalligi bilan yanada yaqinroq ko'z tashlanadi: "U volidasi malika Oychechak begimga o'xshagn bug'doyrang, bo'yi o'rtadan sal balandroq va qoruvli, chehrasi jiddiy, qop-qora qoshlari ostidan muloyim boqib turuvchi ko'zlari katta-katta, lablari qalin edi. Shaxzoda Jaloliddin qat'iyatli va bir so'zli bo'lsada, ovozi hech qachon baland ko'tarmas, o'zi ham kamgap edi. Lekin nihoyatda kuchli, qilichbozligu, nayzabozlikda unga uncha-muncha pahlavon teng kelolmasdi"¹⁷. Yuqoridagi tarixiy fakt va badiiy tasvir uyg'unligida ijodkor originalligining faktga asoslanish, badiiy tajriba olish prinsipining muallifgagina tegishli individualligini anglash mumkin. Tarixiy fakt an-Nasaviyning asari bo'lsa, badiiy tasvirga olish, portret chizish uslubi Abdulla Qodiriy qalamiga monand. "Og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit(Otabek portreti)"¹⁸.

¹⁵ Ushbu asar. – B. 76.

¹⁶ Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni. Kamol Matyaqubov tarj./ –Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 301.

¹⁷ Shahodat Isaxonova. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika. Sano standart. – Toshkent: nashriyoti. 2018. – B. 76.

¹⁸ Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 6.

“U bug‘doymag‘iz ranglik, o‘rta bo‘ylik, turkiy qiyofalik... U yuvosh, muloyim odam edi, jahldor emasdi, haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi. U nihoyatda jiddiy edi, kulmasdi, faqat jilmayib qo‘yardi, kam gapirardi(Jaloliddin Manguberdi portreti)”¹⁹ tarziga uyg‘unlashadi va keyingi boblarda aynan shu portret dialoglarda tabiiy ravishda o‘z dalilini topadi. Oychechak begim va Xonsultonbegim Jaloliddinning otasi Alouddin Muhammad qarori bilan valiahdlikdan mosuvo qilinishiga nisbatan kuyinib gapirishlariga javoban yosh shahzoda shunday javob beradi:

- Validam, singlim, bul xabarni sizlarga aytib, dilingizni og‘ritganimdin nefoyda? Aytmasam ham eshitar erdingiz, mana eshitibsizku! Xo‘p biror-bir narsao‘zgardimu? Chunki bul qaror Sultonimizning qaroridir! Bul qarorga e‘tiroz bildirmoq qanday oqibatlariga olib kelishini yaxshi bilursiz!²⁰ Ana shu dialogda yuqorida berilgan “yuvosh”, “muloyim”, “jahldor emasdi”, “haqoratomuz so‘zlarni aytmasdi”, (an-Nasaviy ta‘biri), “chehrasi jiddiy”, “qop-qora qoshlari ostidan muloyim boqib turuvchi ko‘zlari katta-katta”, “qat‘iyatli va bir so‘zli bo‘lsada, ovozini hech qachon baland ko‘tarmas, o‘zi ham kamgap”(Shahodat Isaxonova ta‘biri), “Og‘ir tabi‘atlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam”(Abdulla Qodiriyning Otabekni tasvirlashi) xarakterli, muzokarali, mulohazakor obrazni yuzaga chiqarib keladi.

Obraz xarakterini yaratishda unga berilgan har bir ta‘rif asarning biror qismida dalillanishi kerak, aks holda badiiy dalilini topmagan obraz xakteri to‘laqonli ochimaydi, shakllanmaydi.(F.K)

Asar davomida Jo‘ji va Chig‘atoylar Urganch qamaliga kirishadi, xalqning va Najmiddin Kubroning matonati, vatanparvarligi tufayli hujumlar bekor ketadi, shunda Chingizning boshqa “O‘qtoy qoonning o‘g‘illari ichida oqko‘ngili, kamtarin buning ustiga tantisi ham edi. U hech qachon g‘azablanmas, g‘azabi bo‘g‘ziga kelga taqdirida ham ovozini baland ko‘tarmas, birovni huda-behuda va ortqicha koyimasdi”²¹ obrazidagi o‘g‘li kurash maydoniga chiqadi va bu ta‘rif asar boshida Jaloliddin Mnaguberdiga berilgan “Jaloliddin qat‘iyatli va bir so‘zli bo‘lsada, ovozini hech qachon baland ko‘tarmas, o‘zi ham kamgap edi” ta‘rifga shunday yaqin keladiki yozuvchi bu bilan jangning taqdiridan dalolat berib, xoh ijobiy xox salbiy qahramon bo‘lsin ularning inson sifatidagi xarakterini reallikka xos tarzda obrazlantiradi.

“Uning zabardast gavdasi...boshi qoracha yuziga monand katta, peshonasi keng, karraklari xiyol kerilgan burni qirra, lablari qalin edi. Og‘zining kattaligi ingichka kuzalgan murti va to‘rtburchak shaklda g‘alati qilib qirqilgan soqoli hisobiga

¹⁹ Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni. Kamol Matyaqubov tarj./ –Toshkent: O‘zbekiston, 2009. – B. 301.

²⁰ Shahodat Isaxonova. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika. Sano standart. – Toshkent: nashriyoti. 2018. – B.130.

²¹ Shahodat Isaxonova. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika. Sano standart. – Toshkent: nashriyoti. 2018. – B. 305.

sezilmas, lekin kalta yengidan chiqib turgan baquvvat bilaklaridan, uzun-uzun va yo'g'on barmoqlaridan uning pahlavon kelbati, atrofga burgut misol tikilayotgan chaqnoq ko'zlaridan vujudidagi kuch-qudrat yaqqol ko'rinib turadi"²²gan Chingizxon tasvirida butun to'qnashular davomida bu obrazlantiruvchi matn o'quvchi xayolida gavdalanib turadi. Yoki "zavqi to'lib-toshsa ham tishining oqini ko'rsatmas" darajadagi sovuqlik Chingizxonning farzandlariga, qo'mondonlarga, qo'shinga bo'lgan munosabatlarida o'z aksini topadi. Obraz xarakterini to'la namoyon bo'lishi uchun adiba uning achinarli sevgi tarixiga ham to'xtalib, yovuz, qahri qattiq shaxs sifatidagi obrazning xarakteridagi bu illatlar Burtaga bo'lgan muhabbati, tinch hayoti poymol qilinganligi va "-Men ularni yer yuzidan supurib tashlayman, urug'-aymog'iga o't qo'yamen"²³kabi nafratomuz dialoglarida badiiy asosini topadi.

Adiba bu originallikni ta'minlash uchun xronikali syujet qoidalaridan unumli foydalanib keladi, istalgan personajga berilgan dastlabki tasvir keyingi boblarda to'ldiriladi, uning xarakteri voqealar fonida ochlib boriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki yangi o'zbek adabiyotidagi dastlabki romanlar xususan "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Qullar", "Kecha va Kunduz", "Sarob", "Navoiy" romanlaridagi dialoglar matni tarkibida salbiy, haqoratomuz so'zlarni qo'llash mavjud bo'lsada, ijodkorlar ularni minimallashtirishga harakat qilinganligi seziladi, ammo istiqloq davri boshlangandan keyingi romanlarda ayniqsa bugungi kunlarda yangi nashrdan chiqayotgan asarlarda bu minimallikdan chekinish reallikning hayotiyiligini ta'kidlash kuchayib, haqoratomuz so'zlarga erk berilmoqda. To'g'i, realist buni chetlab o'tmasligi kerakdir, ammo eng avvalo gumanizm, inson ruhiyatidagi ko'tarinkilik, hayotga muhabbat, kelajakka umid, yorqin hayot, kurashuvchanlik, ilm-ma'rifat, sevgi-muhabbat singari odam farzandining gultojlari adabiyotning g'oyaviy yadrosini tashkil qilishi eng asosiy mezondir. Ayniqsa Qur'oni Karim oyatlari kiritilgan asarlarga jiddiy darajadagi haqoratomuz ma'no beruvchi so'zlarni qo'shish asarni bachkana qilsa, butun roman voqealarida ijobiy obraz sifatida tasvirlanib kelayotgan Oychechak begim ichki dialogida "sening gaping mening haligim"²⁴ jargonining qo'llanilishi personajni ma'naviy "cho'ktirib" yuborilishiga va reallik emas aksincha reallikdan uzoqlashtirib, badiiy etiket qoidalariga zid holatning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi.

Boshqa Xorazmshohlarga bag'ishlangan tarixiy mavzudagi romanlardan farqli o'laroq Shahodat Isaxonovanning "Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika" romanida faqat Jaloliddin yoki Temur Malik obrazi emas

²² Shahodat Isaxonova. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika. Sano standart. – Toshkent: nashriyoti. 2018. – B. 304.

²³ Ushbu asar. – B. 308.

²⁴ Shahodat Isaxonova. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika. Sano standart. – Toshkent: nashriyoti. 2018. – B. 119.

uning atrofida ugalari badiiy obrazining portreti chizilgan ular haqida ham boshqa barcha asarlarga nisbatan kengroq tasvir berilgan. "Shahzodalar ichida nihoyatda ko'rkam, botiniy jihatdan ham oliyjanobi Xorazmshohning ikkinchi o'g'li Rukniddin G'ursanjtiy edi. U baland bo'yli, yelkador, yuzlar xuddi volidasi Mohinur bonuning chehrasi kabi musavvir qalamidan keyin jon enganday issiq va nurli, Nazari tushgan nigohni bir entiktiradi. Yaratgan undan barcha yaxshi fazilatlarni ayamagan, mehribon, saxiy va adolatli edi"²⁵ shaklida ijobiy tasvirlaydi. Qutbiddin O'zloqshoh ham ilmi, ma'rifatli shaxs sifatida jonli tasvirga olinadi: U baland bo'yli va ozg'in, lekin, yelkador, qoracha chehrasi otasiga o'xshab ketsa-da, ko'zlari volidasiniki kabi qisq edi. U ham boshqa shaxzodalar kabi harb ilmni yaxshi egallagan, lekin jur'atsizva ishonuvchan, harbdan ko'ra ilmga moyilligi, ustun edi. Uning husni xati nihoyatda chiroyli edi...²⁶. Obrazlar portretida qosh, ko'z, yelka, bo'y, rang va ularning xarakteri birlamchi detal bo'lib, tarixiy shaxslarni badiiy asarlarda jonlatirishning tasviriy uslubidir. Bu uslubning tub negizi xalq og'zaki ijodi bo'lib, folklordan zamonaviy adabiyotgacha, bugungi kunda esa an'anaviylikka aylangan uzoq asrlik bosqichlarga ega. "Avazxon bilan Hasanxon ham sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo'ldi... Gulnor ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, uzun bo'yli, keng ko'krakli, xush xayol, zehni tez, serfahm qiz edi"²⁷, "bir odam, sher haybatli, yo'lbars sifatli bir kishi"²⁸, "Alifday qomating, xipcha belingdan, menga bayon ayla o'sgan elingdan"²⁹. Roman boblari temalashtirilmagan bo'lsa-da ular qamrab olgan voqealar tizimi asarning yaxlit kompozitsiyasini tashkil qiladi, o'quvchini chalg'itadigan epizodlar uchramaydi, aksincha har bir voqea, har bir epizod asarni to'ldirib, ba'zi o'rinlarda tarixchilarni ham yangi izlanishlarga chorlaydigan, tarixiy faktlarni badiiy laboratoriyada tahlillab, moziy haqiqatini ochishda boshqa rakurslarga ishoralar ko'rsatadi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki yozuvchi Shahodat Isaxanova tarixiy faktva badiiy to'qima muvozanatini saqlagan holda badiiy asar yozgan. Romanda ijodkor o'zbek adabiyotida avvaldan mavjud bo'lgan tarixiy shaxslar obrazini o'z badiiy haqiqatlari bo'yicha shakllantirilib, qahramonlar portreti tarixiy manbalar asosida badiiy sayqal berilgan holda gavdalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni. Kamol Matyaqubov tarj./ –Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 301.

²⁵ Ushbu asar. – B. 76.

²⁶ Ushbu asar. – B. 77.

²⁷ Ravshan dostonidan

²⁸ Kuntug'mish dostoni

²⁹ Rustamxon dostonidan

2. Shahodat Isaxanova. Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog'iga tushgan malika. Sano standart. – Toshkent: nashriyoti. 2018. – B. 76.
3. Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 6.
4. Rahmatulla Barakayev. Ma'rifatga tashna millat kerak yurtga. –Toshkent.: Muharrir nashriyoti, 2024. – B. 177.
5. Koshg'ariy Mahmud. Turkiy so'zlar devoni (Devonu lug'otit turk). – uch tomlik. – III tom. /tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov/. – Toshkent, O'zfanakadnashr, 1963. – B. 463.
6. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. (B.Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahririda; Fors tilidan B.Ahmedov va boshq. tarj.). – Toshkent, Cho'lpon nashriyoti, 1993 (1994). – 352 b.
7. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. – Yigirma tomlik. – Birinchi tom: Badoyi' ul-bidoya. – Toshkent, O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1987. – 112.
8. Carved stone inscription of Jalal al-Din Khwarazm-Shâh. – The British Museum.
9. <https://artsandculture.google.com/asset/carved-stone-inscription-of-jalal-al-din-khwarazm-sh%C4%81h/twFpIo7WtIN52A>